Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 32
TABIIY FANLAR

Namangan viloyatida barqaror demografik siyosatni shakllantirishda xalqaro tajribalardan foydalanish imkoniyatlari

Shoira Dilmurod qizi Xasanova*
Namangan davlat universiteti, Geografiya (o'rganish obyekti bo'yicha) mutaxassisligi magistranti
✉ shoiraxasanova2003@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada barqaror demografik siyosatning nazariy asoslari, uning hududiy rivojlanishdagi ahamiyati hamda xalqaro tajribalardan foydalanish imkoniyatlari Namangan viloyati misolida tahlil qilingan. Tadqiqotda demografik jarayonlarning hududiy xususiyatlari, jumladan, tug'ilish, o'lim, migratsiya, yosh-jins tarkibi va urbanizatsiya ko'rsatkichlari barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uyg'un holda baholangan. Xalqaro amaliyotda Yaponiya, Fransiya, Janubiy Koreya va Kanada tajribalari o'rganilib, ularning Namangan viloyatining geodemografik sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslangan. Tadqiqot natijalari hududning demografik salohiyatidan samarali foydalanish, inson kapitalini rivojlantirish hamda hududiy rivojlanishning barqarorligini ta'minlashga qaratilgan demografik siyosatning ustuvor yo'nalishlarini belgilash imkonini beradi.

Kalit so'zlar

barqaror demografik siyosat, geodemografiya, Namangan viloyati, xalqaro tajriba, demografik rivojlanish, migratsiya, tug'ilish, hududiy tahlil, barqaror rivojlanish.

DOI: 10.5281/zenodo.21743327

KIRISH

Demografik jarayonlar XXI asrda dunyo mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bevosita ta'sir etuvchi strategik omillardan biriga aylandi. Aholi sonining o'zgarishi, yosh tarkibining transformatsiyasi, urbanizatsiya sur'atlari va migratsiya oqimlarining kuchayishi hududlarning iqtisodiy salohiyati, mehnat bozori, ijtimoiy infratuzilmasi hamda ekologik barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois zamonaviy demografik siyosat nafaqat aholi sonini tartibga solishga, balki inson kapitalini rivojlantirish, hududlar o'rtasidagi demografik muvozanatni ta'minlash va barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilmoqda.

Barqaror demografik siyosat Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030-yilgacha mo'ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, sifatli ta'lim, sog'liqni saqlash, gender tengligi, munosib mehnat, kambag'allikni qisqartirish va hududlarning inklyuziv rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi [1]. Shu nuqtai nazardan, demografik jarayonlarni boshqarishda xalqaro tajribalarni o'rganish va ularni hududlarning geodemografik xususiyatlarini hisobga olgan holda moslashtirish ilmiy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston aholisi sonining barqaror o'sishi kuzatilayotgan davlatlardan biri bo'lib, demografik rivojlanish hududlar kesimida sezilarli tafovutlarga ega. Ayniqsa, Namangan viloyati respublikada aholi zichligi yuqori, tabiiy ko'payish sur'atlari nisbatan faol hamda mehnat resurslari salmog'i katta bo'lgan hududlardan biri hisoblanadi. Bunday sharoitda aholi sonining o'sishi bilan bir qatorda bandlik, migratsiya, urbanizatsiya, ijtimoiy xizmatlardan foydalanish va infratuzilmani rivojlantirish masalalari ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Natijada hududning geodemografik rivojlanishini ilmiy asoslangan demografik siyosat orqali boshqarish zarurati ortib bormoqda.

Shu bilan birga, turli davlatlarda demografik muammolar turlicha namoyon bo'lishi sababli ularni hal etish mexanizmlari ham o'ziga xosdir. Masalan, Yaponiya va Janubiy Koreyada tug'ilish darajasining pasay-

ishi hamda aholining qarishi asosiy muammo bo‘lsa, Kanada va Avstraliyada migratsiyani samarali boshqarish iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida qaraladi. Fransiya esa oilani qo‘llab-quvvatlash va tug‘ilishni rag‘batlantirish bo‘yicha samarali demografik siyosati bilan ajralib turadi. Ushbu tajribalarni Namangan viloyatining geodemografik sharoitiga moslashtirish hududning barqaror rivojlanishiga xizmat qilishi mumkin.

Mazkur tadqiqotning **maqsadi** xalqaro demografik siyosat tajribalarini tahlil qilish hamda ularni Namangan viloyatining geodemografik xususiyatlarini hisobga olgan holda qo‘llash imkoniyatlarini ilmiy asoslashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi **vazifalar** bajarish zarur:

-barqaror demografik siyosatning nazariy va konseptual asoslarini tahlil qilish;

-demografik siyosatni shakllantirish bo‘yicha rivojlangan davlatlar tajribasini qiyosiy o‘rganish;

-Namangan viloyatining geodemografik xususiyatlari va demografik rivojlanish tendensiyalarini baholash;

-xalqaro tajribalarni Namangan viloyatining hududiy va demografik sharoitiga moslashtirish imkoniyatlarini aniqlash;

-hududda barqaror demografik rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan ustuvor siyosiy yo‘nalishlar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Barqaror demografik siyosatni shakllantirish, aholi takror barpo bo‘lish jarayonlarini boshqarish hamda hududlarning geodemografik rivojlanishini ta'minlash masalalari jahon va mamlakatimiz olimlari tomonidan keng tadqiq etilgan. Xorijiy tadqiqotlarda demografik siyosat davlatning tug‘ilish, o‘lim, migratsiya va aholi tarkibiga ta'sir ko‘rsatuvchi kompleks boshqaruv mexanizmi sifatida talqin qilinadi. Ushbu yo‘nalishdagi ilmiy ishlarda demografik siyosatning iqtisodiy rivojlanish, inson kapitali, ijtimoiy himoya, reproduktiv salomatlik hamda barqaror rivojlanish maqsadlari bilan o‘zaro bog‘liqligi asoslab berilgan. Ayniqsa, P. Demeny [4]**,** J. C. May [7]**,** G. McNicoll[8]**,** F. W. Notestein [9]**,** J. C. Caldwell [3] va W. Zelinskylarning [14] ilmiy tadqiqotlari demografik siyosatning nazariy asoslarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi.

Barqaror demografik rivojlanish masalalari Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) [13] BMT Aholishunoslik jamg‘armasi (UNFPA) [22] hamda Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyalar va hisobotlarda ham keng yoritilgan. Xususan, 1994-yilda Qohirada bo‘lib o‘tgan Aholi va rivojlanish bo‘yicha xalqaro konferensiya (ICPD) yakuniy dasturida demografik siyosatning asosiy maqsadi inson huquqlari, reproduktiv salomatlik, gender tengligi va barqaror rivojlanishni ta'minlash bilan uzviy bog‘liqligi e'tirof etilgan. Shuningdek, BMTning 2030-yilgacha mo‘ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) doirasida demografik omillar sog‘liqni saqlash, sifatli ta'lim, munosib mehnat, kambag‘allikni qisqartirish va hududiy rivojlanish bilan integratsiyalashgan holda ko‘rib chiqiladi. O‘zbekistonda demografik jarayonlar, aholi geografiyasi va hududiy rivojlanish masalalari Z. N. Tojiyeva [15], R. A. Ubaydullayeva [16], A. S. Soliyev [11], Sh. Z. Jumaxanov [6] va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarida yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida respublika hududlarining geodemografik xususiyatlari, aholi joylashuvi, migratsiya jarayonlari, urbanizatsiya, yosh-jins tarkibi hamda demografik rivojlanishning hududiy tafovutlari tahlil qilingan. Mazkur ilmiy ishlarda demografik jarayonlarni hududiy yondashuv asosida baholashning nazariy va metodologik asoslari shakllantirilgan. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, statistik tahlil, tizimli yondashuv va ilmiy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Natija va muhokama. Barqaror demografik siyosat mamlakat yoki hududning demografik rivojlanishini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bilan uyg‘un holda boshqarishga qaratilgan. Uning asosiy maqsadi aholi sonining o‘sishini emas, balki demografik jarayonlarning barqarorligini ta’minlash, inson kapitalini rivojlantirish va aholining turmush sifatini yaxshilashdan iborat.

Bugungi kunda dunyoning aksariyat davlatlarida demografik siyosat tug‘ilish, o‘lim va migratsiya jarayonlarini tartibga solish bilan birga bandlik, ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya va urbanizatsiya siyosati bilan ham uzviy bog‘liq holda olib borilmoqda. Har bir mamlakat demografik holatidan kelib chiqib o‘ziga xos siyosat yuritadi. Masalan, tug‘ilish darajasi past davlatlarda uni rag‘batlantirish choralari ustuvor bo‘lsa, aholi soni tez o‘sayotgan mamlakatlarda mehnat resurslaridan samarali foydalanish, bandlikni ta’minlash va migratsiyani boshqarishga ko‘proq e’tibor qaratiladi.

Namangan viloyatida ham aholi sonining muntazam ortib borishi, yoshlar ulushining yuqoriligi va

mehnat resurslarining salmoqli ekanligi hududning geodemografik xususiyatlarini hisobga olgan holda demografik siyosatni takomillashtirishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, turli mamlakatlarning bu boradagi tajribalarini o‘rganish va ularning hudud sharoitiga mos jihatlarini aniqlash muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Yaponiya dunyoda aholining qarishi va tug‘ilish darajasi eng past bo‘lgan davlatlardan biri hisoblanadi [19]. So‘nggi o‘n yilliklarda tug‘ilish ko‘rsatkichining pasayishi natijasida mehnatga layoqatli aholi soni qisqarib, keksa yoshdagi aholi ulushi ortib bormoqda. Mazkur holat mehnat bozori, pensiya tizimi va sog‘liqni saqlash sohasiga qo‘shimcha yuklama keltirib chiqarmoqda. Shu sababli Yaponiya hukumati demografik siyosatda yosh oilalarni qo‘llab-quvvatlash, farzandli oilalarga moliyaviy yordam ko‘rsatish, maktabgacha ta'lim muassasalari sonini ko‘paytirish hamda ish va oilaviy hayot o‘rtasidagi muvozanatni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Xalqaro tadqiqotlar aynan 0–2 yoshli bolalar uchun sifatli bog‘cha va parvarish xizmatlarini kengaytirish tug‘ilish darajasini qo‘llab-quvvatlashda eng samarali choralar qatoriga kirishini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, mamlakatda ayollar va yoshlarning mehnat bozoridagi faolligini oshirish, pensiya yoshidagi fuqarolarni iqtisodiy faoliyatga jalb etish hamda raqamli texnologiyalarni keng qo‘llash orqali demografik muammolarning salbiy ta'sirini kamaytirishga alohida e'tibor berilmoqda. Biroq ko‘rilayotgan choralar tug‘ilish darajasini qisqa muddatda sezilarli oshirishga yetarli bo‘lmayotgani sababli demografik siyosat doimiy ravishda takomillashtirib borilmoqda.

Fransiya, Janubiy Koreya va Kanada ham demografik siyosatni samarali amalga oshirayotgan davlatlar qatoriga kiradi. Fransiyada oilalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, bolalar nafaqalari, soliq imtiyozlari hamda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish orqali tug‘ilish darajasini nisbatan barqaror saqlashga erishilgan [17]. Janubiy Koreyada tug‘ilishning keskin pasayishi sharoitida yosh oilalarni uy-joy bilan ta'minlash, bolalar parvarishi xarajatlarini subsidiyalash va ish hamda oilaviy hayotni uyg‘unlashtirishga qaratilgan kompleks dasturlar amalga oshirilmoqda [21]. Kanada tajribasida esa iqtisodiy ehtiyojlardan kelib chiqib malakali migrantlarni jalb etish va ularni mehnat bozoriga integratsiya qilish orqali demografik barqarorlikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratiladi [20]. Ushbu davlatlar tajribasi demografik siyosatning samaradorligi uni hududning demografik, iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlariga moslashtirish bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Namangan viloyatida vaziyat Yaponiyadan farq qiladi. Viloyatda aholi soni va tabiiy o‘sish yuqori bo‘lib, asosiy vazifa tug‘ilishni rag‘batlantirish emas, balki o‘sib borayotgan aholi uchun munosib bandlik, sifatli ta'lim va tibbiy xizmatlarni kengaytirishdan iborat (1-jadval). Shunga qaramay, Yaponiya tajribasidagi oilani qo‘llab-quvvatlash, bolalar parvarishi xizmatlarini rivojlantirish va inson kapitaliga investitsiyalarni ko‘paytirish kabi yondashuvlar Namangan viloyati uchun ham muhim amaliy ahamiyatga egadir.

Namangan viloyati demografik rivojlanish sur'atlari bo‘yicha respublikaning yetakchi hududlaridan biri hisoblanadi. 2020–2024-yillar davomida viloyatda tug‘ilish koeffitsiyenti 26,6–26,7‰ oralig‘ida deyarli barqaror saqlanib qolgan bo‘lsa, o‘lim koeffitsiyenti 4,8‰ dan 4,7‰ gacha kamaygan. Shu bilan birga, tabiiy ko‘payish koeffitsiyenti 21,8‰ dan 21,3‰ gacha biroz pasaygan [26]. Mazkur holat tug‘ilish darajasining yuqoriligiga qaramay, demografik jarayonlarning nisbatan barqarorlashayotganini hamda kelgusida demografik siyosatni faqat aholi sonini ko‘paytirishga emas, balki inson kapitali sifatini oshirishga yo‘naltirish zarurligini ko‘rsatadi.

Tumanlar nomi	**2020-yil Tug‘ilish koeff-isiyenti (‰ hisobida)**	**O 'lim koeffisiyenti (‰ hisobida)**	**Tabiiy ko‘payish koeffisiyenti (‰ hisobida)**	**2024-yil Tug‘ilish koeffisiyenti (‰ hisobida)**	**O 'lim koeffisiyenti (‰ hisobida)**	**Tabiiy ko‘payish koeffisiyenti (‰ hisobida)**
Namangan viloyati	26,6	4,8	21,8	26,7	4,7	21,3
Namangan sh	29,8	5,2	24,6	29,2	5,1	24,1
Davlatobod	0	0	0	24,7	4	20,7
Yangi Namangan t	0	0	0	30	4	26

Mingbuloq	25,9	4,2	21,7	25	4	21
Kososnsoy	26,7	4,4	22,3	27,1	3,8	23,3
Namangan	26,1	4,5	21,6	27,5	4,1	23,4
Norin	24,4	4,8	19,6	25	4,9	20,1
Pop	23,8	4,7	19,1	23,8	5	18,8
To‘raqo‘rg‘on	27	4,6	22,4	27,3	4,2	23,1
Uychi	28,1	5,3	22,8	27,8	4,9	22,9
Uchqo‘rg‘on	25,1	5,4	19,7	25,5	5,6	19,9
Chortoq	24,6	4,7	19,9	26	4,5	21,5
Chust	24,4	4,5	19,9	26	4,3	21,7
Yangiqo‘rg‘on	26	4,7	21,3	25	4,5	20,5

1-jadval

Namangan viloyati aholisining shahar va qishloq joylaridagi tabiiy ko‘payish ko‘rsatkichlari

Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Namangan viloyatida demografik jarayonlar hududlar kesimida bir xil emasligini ko‘rsatmoqda (1-jadval). Viloyat O‘zbekistonning demografik jihatdan eng jadal rivojlanayotgan hududlaridan biri hisoblanadi. 2025-yil 1-yanvar holatiga viloyatning doimiy aholisi 3 mln 131,7 ming kishini tashkil etgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 65,6 ming kishiga ko‘paygan. 2024-yil davomida viloyatda 81,9 ming nafar bola tug‘ilgan, 14,3 ming o‘lim holati qayd etilgan. Natijada tabiiy o‘sish 67,6 ming kishini tashkil etgan [25,26]. Bu ko‘rsatkichlar viloyatda tug‘ilish darajasi yuqori ekanligini va aholining tabiiy o‘sishi barqaror davom etayotganini ko‘rsatadi.

2024-yilda Yangi Namangan tumani (26,0‰), Namangan tumani (23,4‰), Kosonsoy tumani (23,3‰) hamda To‘raqo‘rg‘on tumanida (23,1‰) tabiiy ko‘payish ko‘rsatkichlari viloyat o‘rtacha darajasidan yuqori ekanligi kuzatiladi. Aksincha, Pop (18,8‰), Uchqo‘rg‘on (19,9‰) va Norin (20,1‰) tumanlarida tabiiy o‘sish nisbatan pastroq shakllangan [26]. Bu esa hududlar o‘rtasidagi geodemografik tafovutlarni hisobga olgan holda demografik siyosatni hududiy yondashuv asosida amalga oshirish zarurligini ko‘rsatadi.

Mazkur demografik holat viloyat uchun bir qator imkoniyatlar bilan birga yangi vazifalarni ham yuzaga keltirmoqda. Aholi sonining muntazam o‘sishi mehnat resurslari salohiyatini oshirayotgan bo‘lsa-da, ta'lim, sog‘liqni saqlash, uy-joy, infratuzilma va yangi ish o‘rinlariga bo‘lgan talabni ham kuchaytirmoqda. Shu sababli Namangan viloyatida demografik siyosatning asosiy yo‘nalishi tug‘ilishni rag‘batlantirish emas, balki o‘sib borayotgan aholi uchun munosib turmush sharoitlarini yaratish, inson kapitalini rivojlantirish va bandlikni ta'minlashga qaratilishi maqsadga muvofiqdir (2-jadval).

2-jadval

Namangan viloyati tumanlarini tabiiy ko‘payish koeffitsiyenti bo‘yicha geodemografik guruhlash va hududiy demografik siyosatning ustuvor yo‘nalishlari

Tabiiy o‘sish darajasi	Hududlar	Tavsiya etiladigan siyosat
Yuqori (>23‰)	Yangi Namangan, Namangan tumani, Kosonsoy, To‘raqo‘rg‘on	Ta'lim, sog‘liqni saqlash va infratuzilmani kengaytirish
O‘rtacha (20–23‰)	Namangan viloyati, Chust, Chortoq, Uychi, Mingbuloq, Yangiqo‘rg‘on	Bandlikni oshirish va yosh oilalarni qo‘llab-quvvatlash
Past (<20‰)	Pop, Uchqo‘rg‘on, Norin	Mehnat resurslaridan samarali foydalanish va migratsiyani boshqarish

Manba: Muallif tomonidan Namangan viloyati statistika boshqarmasining ma'lumotlari asosida tuzildi.

Xalqaro tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Yaponiya, Fransiya, Janubiy Koreya va Kanadada qo‘llanilayotgan demografik siyosat vositalarining ayrim elementlarini Namangan viloyati sharoitiga moslashtirish mumkin. Xususan, yosh oilalarni qo‘llab-quvvatlash, maktabgacha ta'lim infratuzilmasini kengaytirish, ayollar bandligini rag‘batlantirish hamda mehnat resurslarini samarali boshqarishga qaratilgan chora-tadbirlar hududning barqaror demografik rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin (3-jadval).

3-jadval

Xalqaro tajribalar asosida demografik siyosatning asosiy yo‘nalishlari va ularni Namangan viloyatida qo‘llash imkoniyatlari

Mamlakat	Demografik muammo	Amalga oshirilayotgan siyosat	Namangan viloyati uchun qo‘llash imkoniyati
Yaponiya	Tug‘ilish darajasining pastligi, aholining qarishi	Yosh oilalarni qo‘llab-quvvatlash, bolalar parvarishi tizimini rivojlantirish, ish va oila muvozanatini ta'minlash	Maktabgacha ta'lim qamrovini kengaytirish, yosh oilalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash
Fransiya	Tug‘ilish sur'atining pasayishi	Oilaviy nafaqalar, soliq imtiyozlari, ko‘p bolali oilalarni qo‘llab-quvvatlash	Bolali oilalar uchun ijtimoiy yordam mexanizmlarini takomillashtirish
Janubiy Koreya	Juda past tug‘ilish darajasi	Uy-joy dasturlari, tug‘ilish uchun moliyaviy rag‘batlar, bog‘chalar sonini oshirish	Yosh oilalar uchun uy-joy va bolalar parvarishi xizmatlarini rivojlantirish
Kanada	Migratsiya va mehnat bozori ehtiyojlari	Malakali migratsiyani boshqarish, immigrantlarni ijtimoiy moslashtirish	Mehnat migratsiyasini samarali boshqarish va bandlikni rivojlantirish
Namangan viloyati	Yuqori tug‘ilish va tabiiy o‘sish, yoshlar ulushining yuqoriligi	Hududiy demografik siyosatni takomillashtirish, ta'lim va bandlikni rivojlantirish	Xalqaro tajribalarni hududning geodemografik xususiyatlariga moslashtirish

Manba: Muallif tomonidan Yaponiya, Fransiya, Janubiy Koreya va Kanada bo‘yicha xalqaro manbalar hamda Namangan viloyati statistika ma'lumotlari asosida tuzildi.

Rivojlangan mamlakatlarda demografik siyosat mavjud demografik muammolardan kelib chiqib shakllantiriladi. Namangan viloyatida esa asosiy e'tibor tug‘ilishni rag‘batlantirishga emas, balki yuqori tabiiy o‘sish sharoitida ta'lim, sog‘liqni saqlash, bandlik va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga qaratilishi lozim. Shu bois xalqaro tajribalarning ayrim elementlarini hududning geodemografik xususiyatlarini hisobga olgan holda moslashtirish maqsadga muvofiqdir (3-jadval).

Demografik siyosatning samaradorligi har bir hududning demografik holati va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga bog‘liq. Shu sababli bir mamlakatda ijobiy natija bergan siyosatni boshqa hududda o‘zgarishsiz qo‘llash har doim ham kutilgan samarani bermaydi.

Tahlil qilingan davlatlar tajribasi oilani qo‘llab-quvvatlash, reproduktiv salomatlikni mustahkamlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, ayollar va yoshlar bandligini oshirish hamda migratsiya jarayonlarini samarali boshqarish barqaror demografik rivojlanishning muhim omillari ekanligini ko‘rsatdi. Ushbu yo‘nalishlarning aksariyati Namangan viloyati uchun ham dolzarb hisoblanadi, biroq ularni hududning geodemografik xususiyatlari va mavjud demografik vaziyatidan kelib chiqib moslashtirish zarur.

Namangan viloyatida aholining tabiiy o‘sishi yuqori bo‘lganligi sababli demografik siyosatning asosiy maqsadi tug‘ilish darajasini oshirish emas, balki o‘sib borayotgan aholini sifatli ta'lim, sog‘liqni saqlash xizmatlari, zamonaviy infratuzilma va barqaror ish o‘rinlari bilan ta'minlashdan iborat bo‘lishi lozim. Shu bilan birga, yosh oilalarni qo‘llab-quvvatlash, maktabgacha ta'lim qamrovini kengaytirish va mehnat resurslaridan samarali foydalanishga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish hududning uzoq muddatli demografik barqarorligiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

Olingan natijalar xalqaro tajribalarni to‘liq ko‘chirish emas, balki ularning samarali jihatlarini Namangan viloyatining demografik va hududiy xususiyatlariga moslashtirish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatdi. Bu yondashuv hududda barqaror demografik siyosatni shakllantirish va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa

1. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, barqaror demografik siyosatni shakllantirishda hududning demografik xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Demografik siyosatning mazmuni har bir hududning aholi soni, yosh tarkibi, migratsiya jarayonlari va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga mos ravishda belgilanishi lozim.
2. Xalqaro tajribalar tahlili Yaponiya, Fransiya, Janubiy Koreya va Kanada kabi davlatlarda demografik muammolarni hal etishda oilalarni qo‘llab-quvvatlash, reproduktiv salomatlikni mustahkamlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarini kengaytirish hamda mehnat resurslarini samarali boshqarish muhim natijalar berganligini ko‘rsatdi.
3. Namangan viloyatida tug‘ilish va tabiiy o‘sish ko‘rsatkichlarining yuqoriligi demografik siyosatning asosiy yo‘nalishini tug‘ilishni rag‘batlantirishdan ko‘ra, aholini sifatli ta'lim, sog‘liqni saqlash xizmatlari, zamonaviy infratuzilma va barqaror bandlik bilan ta'minlashga qaratishni taqozo etadi.
4. Tadqiqot asosida xalqaro tajribalarning samarali jihatlarini Namangan viloyatining geodemografik xususiyatlariga moslashtirish hududda barqaror demografik rivojlanishni ta'minlash, inson kapitalini rivojlantirish hamda de-

mografik siyosat samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri ekanligi aniqlandi.

5. Namangan viloyatida barqaror demografik siyosatni takomillashtirish maqsadida yosh oilalarni qo‘llab-quvvatlash dasturlarini kengaytirish, maktabgacha ta'lim qamrovini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda hududiy demografik monitoring tizimini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. United Nations. Sustainable Development Goals [Elektron resurs]. –1https://sdgs.un.org/goals
2. Abdurahmonov Q.X. Demografiya: [O‘quv qo‘llanma]. – Toshkent: Noshir, 2011. – 296 b.
3. Caldwell, J. C. (1982). *Theory of Fertility Decline*. London: Academic Press.
4. Demeny, P. (2003). *Population Policy: A Concise Summary*. Population Council, New York.
5. Jumaxanov Sh. Z., Xasanova Sh. D. Norin tumanida aholining tabiiy harakati va demografik o‘zgarishlar dinamikasi. *Экономика и социум*, (2025(12). https://doi.org/10.6060/b06fdc_122627eb56494671b0dcfb552e8c73af
6. Jumaxanov Sh.Z, Xasanova Sh.D., Namangan viloyati aholisining tabiiy harakati dinamikasi va yosh- jins tarkibining o‘zaro bog‘liqligi. FarDU ilmiy xabarlari 2-son. https://journal.fdu.uz/api/public/articles/7086/pdf?journal_slug=main
7. May, J. F. (2012). *World Population Policies: Their Origin, Evolution, and Impact*. Dordrecht: Springer.
8. McNicoll, G. (2006). *Policy Lessons of the East Asian Demographic Transition*. Population and Development Review, 32(Supplement), 1–25.
9. Notestein, F. W. (1945). *Population: The Long View*. In T. W. Schultz (Ed.), *Food for the World*. Chicago: University of Chicago Press.
10. OECD. (2025). *Society at a Glance 2025: OECD Social Indicators*. Paris: OECD Publishing.
11. Soliyev A.S., Jumaxanov Sh.Z., Toshpo‘latov A.M. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya [Darslik]. – Namangan: “Mashrab”, 2024. – 408 b.
12. Tojiyeva Z.N., Do‘smonov F.A., Ibragimov L.Z. Geodemografiya. Darslik. – Samarqand: SamDU nashri, 2024. - 304 b.
13. United Nations Department of Economic and Social Affairs. *World Population Prospects 2024*. [Elektron resurs]. URL: https://population.un.org/wpp/
14. Zelinsky W. *The Hypothesis of the Mobility Transition.* // *Geographical Review.* – 1971. – Vol. 61(2). – P. 219–249.
15. Тожиева З.Н. Ўзбекистон Республикасида демографик жараёнлар ва уларнинг ҳудудий хусусиятлари//г.ф.д. DSc) илмий дар. олиш у-н ёз. дисс.автореферати. Тошкент, 2017.-76 б.
16. Убайдуллаева Р.А. Мустақил Ўзбекистон: аёл, оила ва жамият. – Т.: Фан, 2006
17. INSEE (France). [Elektron resurs]. URL: https://www.insee.fr
18. Statistics Bureau of Japan. [Elektron resurs]. URL: https://www.stat.go.jp/english/
19. Statistics Canada. [Elektron resurs]. URL: https://www.statcan.gc.ca
20. Statistics Korea (KOSTAT). [Elektron resurs]. URL: https://kostat.go.kr
21. United Nations Population Fund (UNFPA). *State of World Population 2025*. [Elektron resurs]. URL: https://www.unfpa.org/swp2025
22. World Bank. (2024). *World Development Indicators*. Washington, D.C.: World Bank.
23. World Bank. *World Development Indicators*. [Elektron resurs]. URL: https://databank.worldbank.org/source/world-development-indicators
24. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. URL:https://stat.uz
25. Namangan viloyati statistika boshqarmasi www.namstat.uz